




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

MAVSUMIY MAROSIMLAR TASNIFI

SEASONAL RITUAL CLASSIFICATION

Hanifa XODJIYEVA,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/XTCN8978

Annotation. *This article analyzes the folklore of seasonal rituals of the Uzbek people and the issue of their classification. The study highlights the close connection of seasonal rituals with natural phenomena, the seasons of the year, and the labor activities of the people. It also comparatively examines the issue of classifying seasonal rituals in Uzbek folklore studies based on the views of various scholars. As a result of the research, it is substantiated that, in order to develop a more comprehensive classification of seasonal ritual folklore, it is necessary to systematically consider rituals related to different systems of year reckoning.*

Key words: *seasonal rituals, ritual folklore, lunar calendar, solar calendar, seasonal cycle, twelve-year cycle (muchal), agrarian rituals.*

Asosiy matn. Inson tabiat bilan chambarchas bog'liq, fasllardagi o'ziga xoslik va o'zgarishlar esa inson ruhiyati va ijtimoiy faoliyatiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shu jihatiga ko'ra, mavsumiy marosimlar yilning to'rt fasli bilan chambarchas bog'liq. "Har faslning o'z xislati bor. Har faslning o'z tarovati"– deganlaridek, xalqimiz ularga mos marosimlar ham o'ylab topishgan. Yana-da aniqlashtiradigan bo'lsak, turkiy xalqlar orasida mavsumiy marosimlar faqatgina fasllar bilan emas, balki o'sha fasllarga xos bo'lgan mehnat faoliyati bilan ham bog'liq. Shu sababdan, har bir xalqning mavsumiy marosimlari iqlimiga qarab turlicha bo'ladi.

O'zbek olimlari orasida mavsumiy marosimning tarkibiy qismlari turlicha tahlil etiladi. Bahodir Sarimsoqovning "O'zbek marosim folklori" asarida ungacha bo'lgan adabiyotlarda mavsumiy marosim folklori turkumi alohida masala sifatida tadqiq etilmaganligi sababli mavjud o'quv qo'llanmalarda ham bu borada hech qanday mulohaza bildirilmaganligini aytib o'tadi [Саримсоқов, 1986: 39]. Olimning o'zi esa, ko'plab olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda mavsumiy marosim folklorini qishki marosimlar folklori (Gap-gashtak, Yas-yasun), bahorgi marosimlar folklori (Shox moylar, Loy tutish, Sust xotin), yozgi marosimlar folklori (Choy momo), kuzgi marosimlar folklori (Oblo baraka va boshqa shamol chaqirish marosimlari) kabi 4 guruhga ajratadi. [Саримсоқов, 1986: 40].

O'zbek folklorshunoslaridan Oxunjon Safarov va Omonulla Madayevlarning "O'zbek xalq og'zaki ijodi" asarlarida ham ushbu tasnif aynan takrorlanadi [Safarov, 2010: 128].

Ammo Mamatqul Jo'rayev va Darmonoy O'rayevalarning hammualliflikda yozilgan "O'zbek mifologiyasi" kitobida esa mavsumiy marosimlar folklori quyidagi tiplarga bo'linadi:

1) Qamariy yil hisobi bilan bog'liq folklor janrlari: "Safar qochdi", "Oxir chorshanba", "Barot keldi", "Yo Ramazon";

2) Yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan marosim folklori janrlari: *"Yas-yusun"*, *"Loy tutish"*, *"Shox moylar"* yoki *"Birinchi qo'sh"*, *"Qozon to'ldi"*, *"Navro'z"*, *Mehrjon*, *Sumalak pishirish bilan bog'liq marosimlar* (*"Ashshadarozi"* o'yini, *"Sumalak beviti"*, *"Sumalak sayli"*), *"Boychechak xabari"* yoki *"Boychechak sayli"*, *"Lola sayli"*, *"Guli surx"* sayli, *"Qizil gul sayli"*, *Yomg'ir yog'dirish marosimi* (*"Sust xotin"*, *"Chala xotin"*, *"So'z xotin"*, *"Chayla qozoq"* va h.k.), *shamol chaqirish* (*"Yo Haydar"*) va *shamol to'xtatish marosimlari* (*"Choy momo"*, *"Yalli momo"*), *"Oblo baraka"*, *Hosil bayramlari*, *"Shohi naqshband"*, *"Moshoba"*;

3) muchal hisobi bilan bog'liq marosim folklori: *"Muchal to'yi"* [Jo'rayev, O'rayeva, 2019: 129].

Yuqorida keltirilgan tasniflarni tahlil qilar ekanmiz, mavsumiy marosim tiplari Bahodir Sarimsoqov, Oxunjon Safarov va Omonulla Madayevlarning tasnifi an'anaviy, sodda tasnif bo'lib, yilning to'rt faslida ro'y beradigan marosimlarnigina qamrab oldi. Ammo, islom dini ta'sirida kirib kelgan marosimlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Chunonchi, *"Safar qochdi"*, *"Oxir chorshanba"*, *"Barot keldi"*, *"Yo Ramazon"* xalqimiz orasida yillar davomida o'tkazilib kelinayotgan marosimlar sirasiga kirsada, yuqoridagi tasniflarda ular birorta ham tur tarkibiga kiritilmaydi.

Xalqlar madaniyati va etnografiyasida vaqt hisobi to'rt guruhga bo'linadi:

- qamariy yil hisobi;
- shamsiy yil hisobi;
- fasliy yil hisobi;
- muchal yil hisobi.

Ushbu bo'linishdan ko'rinib turibdiki, dastlabki tasniflarda faqat qamariy va fasliy yil hisobi bilan bog'liq marosimlar qamrab olingan bo'lib, shamsiy va muchal bilan bog'liq marosimlar chetda qolgan. Shunday ekan, tasnifning to'liq bo'lishi uchun Mamatqul Jo'rayev va Darmonoy O'rayevalarning qarashlariga tayansak to'g'ri bo'ladi.

Islom davlatlarida yil hisobi oy taqvimiga asoslanganligi sababli, biz bugungi kunda foydalanayotgan quyosh kalendaridan biroz farq qiladi. Ushbu mamlakatlar ishlatadigan taqvim islomiy-qamariy taqvim bo'lib, unda ham oylar shamsiy yil hisobidagidek 12 oydan iborat. Ammo unda quyosh hisobi kabi 365-366 kun emas, balki 354-355 kun mavjud. Natijada yil davomidagi 10, 11 kunlik farq ular o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Bizning fikrimizcha, din bilan birga kirib kelgan marosimlar ham tasniflardan biriga kiritilishi lozim. Mantiqiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, diniy marosimlar yilning turli davrlarida o'tkazilganligi sababli mavsumiy marosimlar safiga kiritishimiz to'g'ri bo'ladi. Yuqorida nomlari keltirilgan qamariy yil hisobi bilan bog'liq marosimlardan *"Safar qochdi"*, *"Yo Ramazon"* marosimlari bevosita oy nomlari bilan bog'liq bo'lsa, *"Barot keldi"* marosimi muqaddas kecha nomi bilan bog'liq.

Shamsiy yil hisobi Quyoshning yillik harakatiga asoslangan kalendar tizimi bo'lib, insoniyatning astronomik kuzatuvlari natijasida shakllangan. Ushbu tizimda yil davomiyligi Yerning Quyosh atrofida aylanish davri bilan belgilanadi va tabiatdagi muhim astronomik hodisalar bilan uyg'unlashadi. Shamsiy yil bilan bog'liq marosim folklorida quyoshiy yilning boshlanishi yoki muayyan astronomik davrlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Navro'z bahorgi tengkunlik bilan bog'liq holda yangi yil boshlanishini ifodalovchi qadimiy marosimiy bayram sifatida nishonlanadi. Shuningdek, qadimiy an'analarda kuzgi tengkunlik bilan bog'liq Mehrjon bayrami ham tilga olinadi.

Marosim folklorining ba'zi janrlarini quyidagi jadval orqali tahlil qilishga harakat qilamiz.

Marosim	Mavsum	Maqsad/Sabab	Folklor unsuri
“Yas-yusun”	Qish	Qishki yig‘in, bo‘zaxo‘rlik	Yig‘in, she‘r hamda qo‘shiqlar
“Loy tutish”	Bahor	Ariqlarni tozalash	Qo‘shiq, doston, topishmoq, she‘r va hakoza
“Shox moylar”	Bahor	Hosilning mo‘l-ko‘l bo‘lishi	Xilma-xil taomlar, qatlama-patir, duo-fotiha, hashar
“Boychechak xabari”	Bahor	Bahor kelgani haqida xabar berish	Maxsus boychechak qo‘shig‘i
“Lola sayli”	Bahor	Bahor kelganini nishonlash	Sayil, o‘yin-kulgu
“Ashshadarozi”	Bahor	Sumalak pishirish jarayonida ko‘ngilxushlik	Mifologik obraz–qo‘g‘irchoq, qo‘shiq, she‘r, turli aytimlar
“Arg‘imchoq uchish”	Bahor	Bayram munosabati bilan qizjuvonlar to‘planishib, bog‘ sayriga chiqishgan	Ezgu niyat
“Sust xotin”	Bahor	Yomg‘ir chaqirish	Xalq qo‘shiqlari
“Yo Haydar”	Yoz	Shamol chaqirish	Magik aytimlar
“Choy momo”	Yoz	Shamol to‘xtatish	“Choy momo” qo‘shig‘i
“Yalli momo”	Yoz	Shamol to‘xtatish	Yalli momo qo‘shig‘i

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010.
3. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фолклори. – Тошкент: Фан, 1986.

